

**Ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi
293088085-sonli SHARTNOMA**

Toshkent shahar

04-04-2025

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi «**Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi**» davlat muassasasi (keyingi o'rinlarda «**Bajaruvchi**» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor M.Inoyatov bir tomondan va «**BEKTIMIR HILLS DEVELOPMENT MCHJ XK**» keyingi o'rinlar «**Buyurtmachi**» deb yuritiladi). Ikkinchi tomondan, birgalikda «**Tomonlar**», quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha: **Мавжуд объектни, ўз ер участкасида замонавий кўп квартирали турар - жой сифатида ихтисослаштириб, қайта қуриш.** obyektining loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi, o'z navbatida, ekspertizadan o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ekspertizani o'tkazish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Buyurtmachi tomondan oldindan pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng 30 kun, agar Buyurtmachiga hujjatlarni taqdim etish bo'yicha (kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida) elektron tizim orqali xabarnoma yuborilgan bo'lsa, ishlarni bajarish muddati Bajaruvchining xatida belgilangan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

1.3. Ekspertizadan o'tkazishga Buyurtmachining elektron tizim orqali yuborgan **04-04-2025** yildagi 055015-sonli murojaati asos hisoblanadi.

1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi elektron tizim orqali QR kod bilan tasdiqlangan yig'ma ekspert xulosasi hisoblanadi.

II. SHARTNOMA BAHOSI VA O'ZARO HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning shartnomaviy narxlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarorining 6-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Jami to'lovga: 654 505 329,38 (olti yuz ellik to'rt million besh yuz besh ming uch yuz yigirma to'qqiz so'm 38 tiyin) so'm QQS bilan.

2.2. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolangandan so'ng 10 (o'n) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 100 % miqdorini oldindan to'lovni amalga oshiradi.

2.3. Ekspertizadan o'tkazish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar bartaraf etilib, qayta ishlangan loyiha hujjatlari 30 ish kunidan oshmagan muddatda taqdim etilsa, to'lov undirilmaydi. Kechiktirib kiritilganda dastlabki tuzilgan shartnoma narxining 50 foizi miqdorida to'lov undiriladi.

2.4. Buyurtmachi yoki loyihachi tashkilotning xatosi bilan ob'ektlarning smeta qiymati 20 foiz va undan oshib ketgan taqdirda oshgan qismiga o'rnatilgan tartibda elektron tizim orqali qo'shimcha shartnoma qilinadi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha hujjatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi;

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) Bajaruvchiga ekspertizadan o'tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni elektron tizim orqali o'z vaqtida to'liq taqdim etish;

b) ekspertizadan o'tkazish xizmati haqini o'z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to'lovni amalga oshirish;

v) yig'ma ekspertiza xulosasi murojaatchiga elektron tizim orqali yuborilgan vaqtda soliq elektron tizimi operatorlari orqali hisob-faktura va bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalar rasmiylashtiriladi, murojaatchi tomonidan qabul qilinadi.

g) agar yig'ma ekspertiza xulosasi bo'yicha asosli e'tiroz bo'lgan taqdirda, avval yuborilgan hisob-faktura va bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalar, so'ngra esa yig'ma ekspertiza xulosasi murojaatchi tomonidan qaytariladi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

4.1. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0,4 % miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4.3. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

4.4. Nizolarni muzokoralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, kelishmovchiliklarni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

V. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR

5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar:

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lgan har qanday xatti-harakatlarini amalga oshirmaslik;

- shu jumladan pora taklif qilmasligi, va'da bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita pora olishiga, ya'ni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlari yo'lida «Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi» davlat muassasasi xodimi o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan harakatlarni bajarmasligi shart.

Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydilar.

5.2. Agar tomonlar shartnoma shartlarining buzilishiga duch kelsa, shuningdek, «Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi» davlat muassasasi xodimlarining ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lgan xatti-harakatlari, shu jumladan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilganligi haqida quyidagi aloqa kanallariga murojaat qilish mumkin:

«Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi» davlat muassasasi ishonchli telefonlari 71-210-11-04, 71-203-11-01.

VI. SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI

6.1. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

6.2. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

VII. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaz kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Fors-major holatlari deb quyidagilar hisoblanadi:

- tabiiy ofatlar, yong'in, epidemiya, avariya hamda boshqa omillar va holatlar, bunday holda majburiyatlarni bajarish muddatlari fors-major holatining davom etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi.

7.2. Ikkala taraf mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishlari lozim.

7.3. Fors-major holatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdig'i sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi va O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng yuridik kuchga ega bo'ladi, shartnoma 2025 -yil 31-dekabrgacha amalga qiladi.

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

Bajaruvchi	Buyurtmachi
«Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi» DM	«BEKTIMIR HILLS DEVELOPMENT MCHJ XK»
Manzil: 100012,Toshkent sh., Abay ko'ch., 6-uy H/R: 20208000800882573021 STIR: 305550214 OKED: 64190 Bank: "Kapital bank" ATB MFO: 00974 Shartnoma ERI orqali tuzilgan	Manzil: "BEKTIMIR HILLS DEVELOPMENT" MCHJ XK H/R: 20208000005611250001 STIR: 310196756 OKED: 68201 MFO: 01071 Shartnoma ERI orqali tuzilgan

